



“VATAN RAVNAQI, TINCHLIGI VA HIMOYASI YO'LIDAGI QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO'PLAMI

2025-YIL 6-MAY

14. Fayziyeva N.S. (2024 yil), Stabilization of a healthy lifestyle in young families like an ideal family, international conference on higher education teaching, 18-20 betlar.

15 O'zbekiston tarixi: Darslik / O'zR FA Tarix instituti. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 400 b.

O'ZBEKISTONDA XOTIRA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HARBIY MEDIANING O'RNI

Ro'ziqu洛 Dilshod

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Xotira inson ongining oldingi fikr va tajribalarni saqlash hamda qayta eslash qobiliyati hisoblanadi. Xotirasiz bu hayotda oddiy va kundalik vazifalarni ham bajarib bo'lmaydi, chunki hatto ishga borish, suhbatlashish yoki ovqat tayyorlash kabi eng oddiy ishlar eslab qolishni talab qiladigan ma'lumotlar bilan qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Til o'rganish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, predmetlarlarni tanib olish kabi muhim qobiliyatlar ma'lumotlarni esga tushirish imkoniyatisiz amalga oshirilmaydi. Xotira va eslash asosiy psixologik jarayonlar hisoblanadi [1]. Ular o'zlikni anglashimizda markaziy o'rinn tutadi hamda tushunish, o'rganish, ijtimoiy munosabatlar va kundalik muloqotlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qisqa qilib aytganda, xotira inson tajribasining asosiy unsuridir.

Xotira madaniyati – jamiyatning o'tmish bilan munosabatini, tarixiy voqealar, shaxslar va merosga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi murakkab hodisa. U milliy o'zlikni shakllantirishda, madaniy merosni saqlashda va kelajak avlodlarga o'tmish saboqlarini yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari xotira madaniyatini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. OAV ma'lumotlari orqali tarixiy voqealar xotirlanadi, madaniy meros targ'ib qilinadi va jamiyat ongida o'tmishga nisbatan munosabat shakllanadi.

O'zbekiston mustaqillik yillarda o'z tarixiga, madaniy merosiga va milliy qadriyatlariga katta e'tibor qaratmoqda. O'z navbatida xotira madaniyatini shakllantirishda medianing roli tobora ortib bormoqda. OAV orqali tarixiy filmlar, ko'rsatuvarlar, maqolalar va boshqa materiallar tayyorlanib, efirga uzatilmoqda. Biroq bu sohada hali yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Xususan, media materiallarining xolisligi, tarixiy faktlarni buzib ko'rsatish, natijada yosh avlodning tarixga qiziqishini yetarli darajada oshira olmaslik kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xotira va eslab qolishni o'rganish Platon va Aristotelning asarlarida qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Biroq alohida "xotira tadqiqotlari" deb erkin nomlanishi mumkin bo'lgan ilmiy izlanish sifatida paydo bo'lishi yaqinda yuz bergen hodisadir. Chunki xotira va esda olib qolishni o'rganish ishlari so'nggi vaqtlargacha faqat psixologiya fani doirasida olib borildi. Psixologlar xotira va eslab qolishni taxminan 125 yil davomida o'rganib kelmoqda. Xotira va eslab qolish bo'yicha tizimli tadqiqotlar va izlanishlar asosan kognitiv psixologiya sohasida ustunlik qildi, bunda saqlash, qayta tiklash va esga tushirishning kognitiv jarayonlari odatda laboratoriya tajribalari doirasida o'rganildi. Ammo keying yillarda xotira madaniyati va OAVning roli masalalari ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganila boshlandi. Misol uchun, germaniyalik olim Jan Assmanning "Madaniy xotira va dastlabki sivilizatsiya: yozish, eslash va siyosiy tasavvur" kitobida xotira madaniyatining shakllanishida madaniy matnlarning, rituallarning va ommaviy kommunikatsiyalarning o'rni ko'rsatilgan [2]. Britaniyalik tadqiqotchi Liam French zamonaviy jamiyatda xotiraning shakllanishi sezilarli o'zgarishlarga duch kelishida ommaviy axborot vositalari va aloqa texnologiyalari hamda tizimlari muhim rol o'ynayotganini tadqiq etgan [3]. Bundan tashqari, yangi (raqamli) media texnologiyalaridagi taraqqiyot jamoaviy xotirani shakllantirish, saqlash va uzatish usullari nuqtai nazaridan potensial transformativ ahamiyatga ega ekanligi haqidagi so'nggi munozaralar ham ko'rib chiqqan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu mavzuga katta e'tibor qaratgan. Jumladan, professor Abdurahim Erkayevning "Milliy g'oya va ma'naviyat" kitobida milliy g'oyani shakllantirishda tarixiy xotiraning ahamiyati yoritilgan [4]. Ammo O'zbekistonda xotira madaniyatini shakllantirish jurnalistika, xususan, harbiy media rakursida hanuzgacha o'rganilmagan.

O'zbekistonda harbiy media xotira madaniyatini shakllantirishda qator vazifalarni bajaradi. Xususan, tarixiy voqealar, Vatan tinchligi, mudofaasi uchun jonini fido qilgan qahramonlar taqdiri, jasorati haqida ma'lumot beradi, ularni xotirlashga chorlaydi. Shu orqali milliy qadriyatlar, g'urur va vatanparvarlikni targ'ib qilib, milliy o'zlikni shakllantirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, OAV yosh avlodni o'tmish saboqlari bilan tanishtiradi, ularda tarixga nisbatan hurmat va qiziqish uyg'otadi. O'tmish voqealarni xolis, faktlarga asoslangan holda yoritishda tarixiy faktlarni buzib ko'rsatishdan saqlanishi lozim. Qolaversa, harbiy media xotira madaniyatini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. OAV, ayniqsa televide niye va internet, keng auditoriyani qamrab olgani tufayli media materiallari, ayniqsa ko'rsatuv va lavhalar hissiy ta'sirchanlikka ega bo'lib, tomoshabinlar ongida chuqur iz qoldiradi.

Mudofaa vazirligi muassisligidagi "Vatanparvar" gazetasining 2024-2025-yillardagi sonlarida ham xotiraga asoslangan turkum jurnalistik maqolalar chop etilganiga guvohi bo'ldik. Masalan, mazkur gazetaning 2025-yil 28-mart sonida

Sherzod Sharipov muallifligidagi “U kunlarni eslasam, o'pkam to'lib ketadi” sarlavhali maqola tadqiqot mavzusi doirasida tahlilga tortildi. “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi” ruknida e'lon qilingan ushbu materialda Toshkent viloyati Bekobod shahrida umrguzaronlik qilib kelayotgan 100 yoshli Hasanboy Xolmatov Ikkinci jahon urushidagi ishtiroki xotiralarini yodga oladi [5]: “Yoshim 18 ga yetganida meni ham armiya safiga chaqirtirishdi. Qisqa muddatli tayyorgarlikdan keyin 1943-yilning dekabr oyida bizni front chizig'iga olib ketayotgan eshelonga dushman samolyotlari tomonidan hujum uyushtirildi. Kimdir u tomonga yashiringan, kimdir so'l tomonga. Biz ko'pchilik bo'lib yonimizdagi o'rmon tomon yugurdik. Barcha millat va davlatdan urushga safarbar qilingan norg'ul yigitlar o'z tillarida “Ona!” deya baqirgancha yugurardi. Urush biz uchun shu tariqa boshlangandi.

Frontda tankka qarshi to'plarga snaryad yetkazuvchi vazifasida bo'ldim. Bitta to'pni o'qlash, mo'ljalga olish va otish vazifasini 5 kishi bajarar edi. Men jamoaning 5-a'zosi edim. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan 150-200 metrcha chamasi uzoqlikda joylashtirilgan snaryadlarning og'irligi 15 kilogrammni tashkil qilar, bitta qutida 3 dona to'p o'qi bo'lib, uning og'irligi 45 kilogramm edi. Ikki qo'lim bilan ikkita qutini tortib, orqa kuragimda esa yana bitta qutini opichlab kelaman. Umumiylis hisobda 135 kilogramm vazndagi yukni to'pga yetkazib beraman. Vazifamizning og'ir tomoni shunda ediki, tinim yo'q edi. To'xtab qolishning oqibati og'ir bo'lishini barchamiz yaxshi bilardik. Bir safar snaryadlar joylashgan joyga borganimda to'p ustiga dushman o'qi kelib tushdi. Jamoadan bitta men tirik qoldim... U kunlarni eslasam, o'pkam to'lib ketadi”.

Muallif maqola qahramonining xotiralariga tayangan holda, mavzu mohiyatini teran ochib berishga intiladi. Shu maqsadida yana suhbatdoshi fikrlariga qulog tutadi: “G'alabani Berlinda kutib oldik. Hamma xursand. Shunda ko'pchilik jangchilar devorga ismi va manzilini yozayotganiga ko'zim tushdi. Men ham yozmoqchi bo'ldim, ammo bo'sh joy qolmagan edi. Shunda quroldosh do'stimizning yelkasiga chiqib, teparoqdan bo'sh joy topdim-da, ismim, manzilim va millatimni yozdim. Oradan yillar o'tib, 1972-yili Berlinga borganimizda yozganimning yarmi o'chib ketganini, ammo “Hasanboy, Andijon” degan jumlalar hali ham devorning tepe qismida borligidan xursand bo'ldim. Yana bir bora o'sha kunlarni xotirlagandik”.

Hozirgi kunda internet media ham auditoriya bilan interaktiv tarzda muloqot qilish, axborot iste'molchilarining fikrlarini o'rganish va hisobga olish imkonini yaratadi. Shuningdek, turli formatlardan (videorolik, storytelling, podcast, ijtimoiy tarmoqlar) foydalanish mumkin, bu esa auditoriyaga ta'sir etish darajasini kengaytiradi. Shunga qaramay, ba'zi medi materiallarining sifati pastligi, professional darajasi yetarli emasligi kuzatiladi. Ayniqsa, zamon talabiga mos bo'lmasgan mediamahsulotlar yosh avlodning qiziqishini uyg'ota olmaydi, ularni zerikarli va qiziqarsiz deb bilishadi.

Ommaviy axborot vositalari tarixiy voqealarni xotirlash, madaniy merosni targ'ib qilish va milliy o'zlikni shakllantirish orqali jamiyat ongida o'tmishga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Biroq bu sohada hali yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Masalan, avvallari Milliy teleradiokompaniya tizimida "Mehr ko'zda" nomli teledastur efirga uzatilib, taqdir taqozosi bilan ota-onasi, aka-uka, opa-singlisi, umuman yaqin qarindoshlari, yor-birodarlarini yo'qotgan, ammo uni tarixiy xotira, o'tmish voqeliklari bilan eslab, topishga intilgan teletomoshabinlar hikoyasi muntazam bayon etilar edi. Keyingi yillarda na telekanallar, na matbuotda va na internet nashrlari orasida bu yo'nalishdagi medialoyiha yoki chiqishlar uchramaydi.

O'zbekistonda xotira madaniyatini rivojlantirish uchun jurnalistik materiallarining sifati, professional darajasini oshirishga e'tibor qaratish lozim. OAV xodimlarining tarix, madaniyat va kommunikatsiya sohalaridagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, tahririyatlarning xotira madaniyatiga oid loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat grantlari va boshqa resurslarni jalg qilish maqsadga muvofiq. Xotira madaniyati sohasida xalqaro tajribani o'rganish, xorijiy OAV bilan hamkorlikni rivojlantirish ham kutilgan samarani beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Foster Jonathan. Memory: A Very Short Introduction. Oxford: Oxford University Press. 2009. – P. 3.
2. Assman Jan. Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination. UK: Cambridge University Press, 2011. ISBN 978-0-521-18802-9.
https://www.academia.edu/115850628/Review_of_Jan_Assman_Cultural_Memory_and_Early_Civilization_Writing_Remembrance_and_Political_Imagination_Cambridge_UK/etc_Cambridge_University_Press_2011.
3. French Liam. Lest We Forget: Media, Culture and the Formation of Collective Memory // The Journal of Physical Activity and Human Development, 2011. № 5.
4. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – T.: Ma'naviyat, 2004.
5. Sharipov Sh. U kunlarni eslasam, o'pkam to'lib ketadi // Vatanparvar, 2025. № 13 (3127). – B. 8.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA UNING MA'RIFATCHILIK QARASHLARI

To'xtayeva Iroda

"University of business and science" Toshkent filiali tarix yo'nalishi talabasi,

Mirzayev Bekzod Nuraliyevich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar kafedrasi dotsent vb

Yakubov F.U., Baxtiyorov J.E. Xorijiy tillar o'qitish jarayonida milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani targ'ib etish (nemis tili misolida).....	830
Doniyorova M.T. Ta'lim va ma'rifat vositasida tarixiy xotirani mustahkamlash: "Sabot ul-ojizin" asari misolida.....	833
Quchqorova N.M. Yakubova G.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarixiy xotirani mustahkamlashda savodxonlik ta'limining roli (fasilitatorlik yondashuvi asosida).....	836
Sobirova V.J. yoshlar onginda tarixiy xotirani mustahkamlashda ta'lim tizimining innovatsion usullari.....	840
Boymurodov S. Yurti uchun borini bergan qahramonlar.....	841
Nazarova N.J., Ortiqova M.Sh. Yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy jihatlari.....	845
Fayziyeva N.S., To'xtayeva M.O. Raqamli asrda barkamol avlod tarbiysi: o'tganlar xotirasi va zamонавиу texnologiyalarning bolalar psixologiyasiga ta'siri.....	850
Ro'ziqulov D. O'zbekistonda xotira madaniyatini shakllantirishda harbiy medianing o'rni.....	854
To'xtayeva I., Mirzayev B.N. Mahmudxo'ja behbudiy va uning ma'rifatchilik qarashlari.....	858
Джураев А.А., Оролов О.Ф. Великая Отечественная война в исторической памяти народа.....	862
Komilov J.K., Isamiddinova Z.J. The importance of internet language in shaping a culture of memory in Uzbekistan.....	865
Qobiljonova D.Sh. San'at va madaniyat fidoyilar: xotira madaniyatining poydevori.....	868
Рахимова Ф.Э. Таълим-тарбияни амалга оширишнинг замонавий шакллари.....	871
O'rinboyeva M.B. ikkinchi jahon urushi qatnashchilari jasoratining ilmiy-nazariy tahlili.....	874
Usmonova F.N. O'zbekistonda xotira madaniyatini shakllantirishda adabiyot, san'at va ommaviy axborot vositalarining o'rni.....	878
Fayziyeva N.S., To'xtayeva M.O. Kichik muktab yoshida xotira, diqqat va tafakkurning shakllanishi.....	882
Hakimova M.R., Matyoqubova Z.H. Surxon vohasi ayollarining ikkinchi jahon urushida g'alabaga qo'shgan hissalari.....	885
Чебатарева А.Н. 9 мая – день памяти и почестей: историческое значение и современное осмысление в Республике Узбекистан.....	891
Sharipova G.U., Akramjonova M.I. ikkinchi jahon urushi qatnashchilari jasorati.....	894
Choriyev M., Usmonjonov M. Tarixdan saboq olish - farovon kelajak uchun yo'l xaritasi.....	899